

TRANSMILLIY TARIX VA TARIXIY TADQIQOTLARDA MIGRATSIYA MASALALARI

Axmadoy Nozimjon

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchi-stajyori

Annotatsiya: Mazkur maqolada transmilliy tarix tushunchasi va uning migratsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi yoritiladi. Migratsiyaning mazmuni, turlari va nazariy asoslari tahlil qilinib, uning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillari chuqur o'rganiladi. Shuningdek, qadimdan hozirgi kungacha bo'lgan xalqaro migratsiya tarixiy bosqichlari, yo'nalishlari va markazlari ko'rsatib o'tiladi. Mustamlakachilik siyosati va uning oqibatida yuzaga kelgan migratsion jarayonlarga alohida e'tibor qaratiladi. Maqolada globalizatsiya sharoitida migratsiyaning zamonaviy jarayonlari, diasporalar shakllanishi va xalqaro mehnat bozoridagi muhim o'rni tahliliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Transmilliy tarix, xalqaro migratsiya, mehnat bozori, iqtisodiy omillar, mustamlakachilik, globalizatsiya, diaspora, migratsiya nazariyalari, geoiqtisodiy jarayonlar.

TRANSNATIONAL HISTORY AND MIGRATION ISSUES IN HISTORICAL RESEARCH

Axmadoy Nozimjon

Teacher at Tashkent State University of Oriental Studies

Abstract: In this article, the concept of transnational history and its close interrelation with migration processes are examined. The content, types, and theoretical foundations of migration are analyzed, while its economic, social, and political factors are studied in depth. In addition, the historical stages, directions, and centers of international migration from ancient times to the present are highlighted. Special attention is given to colonial policy and the migration processes that emerged as its consequence. The article analytically substantiates the modern processes of migration under globalization, the formation of diasporas, and the significant role of migration in the international labor market.

Keywords: Transnational history, international migration, labor market, economic factors, colonialism, globalization, diaspora, migration theories, geoeconomic processes.

Kirish. Keng ma'noda, transmilliy tarix xalqlar, g'oyalar va yoki jarayonlarning milliy (yoki boshqa belgilangan) chegaralardan tashqarida harakatlanishi yoki tarqalishini kuzatib boradi. Bundan tashqari, u bir nechta davlatlarning arxivlarida empirik tadqiqotlar o'tkazishni ham nazarda tutadi. Garchi "transmilliy" atamasi ta'rifiga ko'ra

zamonaviy tarixni (trans – milliy) anglatsada, bu atama qadimgi va ilk zamonaviy davrlardagi rivojlangan madaniyatlarni (Atlantika dunyosi, Hind okeani, o'rta asrlardagi "Yevropa" va boshqalar) tasvirlash uchun ham qo'llanilgan. Biroq ajratib olish kerak bo'lgan jihat shundaki, qadim va o'rta asrlar uchun bu tushuncha, ehtimol, shunchaki mavjud sohalarni qayta nomlashdan boshqa narsa emas. Zamonaviy davr uchun esa asosiy kategoriyalar qayta ko'rib chiqilgan va muammolashtirilgan. Asosiy masala millatni milliy davlat chegarasidan tashqarida yo'q bo'lib ketmasligiga e'tibor qaratishdir. U yangi talqinda va turli nuqtayi nazardan – ichkaridan va tashqaridan, kengroq kontekstda va milliy chegaralarni olib tashlagan holda ko'rib chiqiladi.

Transmilliy tarixning tadqiqot mavzulari qatorida migratsiya mavzusi yetakchilik qiladi. Transmilliy migratsiya keng tushuncha bo'lib milliy tarixga doir ko'plab masalalarni xususan: davlat shakllanishi va hokimiyat, chegaralar qurilishi, mustamlakachilik va imperializm, siyosiy iqtisod, madaniyat hamda gender, irq va rivojlanish mafkuralarini ham qamrab olishi bilan ahamiyatlidir. Transmilliy tadqiqotlar, albatta, faqat migratsiya tarixi bilan cheklanib qolmaydi. Transmilliy yondashuv qiyosiy tarixga ham yangi hayot bag'ishladi va uning milliy tarixshunosligidan yuqori ko'tarilishiga imkon yaratdi. Yangi qiyosiy tarixlar bir holatni afzal ko'rish yoki boshqasini tasdiqlash uchun ishlatilmaydi. Aksincha, ular kengroq global hodisalarning mahalliy siyosiy shartlilikini ko'rsatish uchun taqqoslashdan foydalanadilar.

Asosiy qism. Bugungi kunda 281 mln.dan ortiq shaxs, ya'ni dunyo aholisining 3,6% xalqaro migratsiya jarayonlariga jalb etilgan bo'lib, bu 1990 – yil ko'rsatkichlari (128 mln)ga nisbatan 3 barobar ko'pdir. Shunga ko'ra, biz xalqaro migratsiyaga qabul qiluvchi va yuboruvchi davlatlarning demografik dinamikasi, mehnat bozori hamda ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlariga to'g'ridan – to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida e'tibor qaratish muhim, deb hisoblaymiz. Migratsiya muammosining kelib chiqish tarixi qadimgi davrga borib taqaladi. Taxminlarga ko'ra, ingliz olimi Ye.Ravenshteyn tomonidan 1885 – 1889 – yillarda migratsiyaga ilk bor ilmiy – nazariy jihatdan ta'rif berilgan. Unga ko'ra, migratsiya – kishilar yashash joyining doimiy yoki vaqtincha o'zgarishi bilan bog'liq hodisadir.

Umuman olganda, "migratsiya" ko'p qirrali tushuncha bo'lgani bois, u ilmiy doirada turlicha talqin etiladi. Mazkur tushunchaning kelib chiqishi, lotincha "migratio" so'zi bilan bog'liq bo'lib, "ko'chish", "siljish" kabi ma'nolarni anglatadi. Maxsus adabiyotlar tahlili, ushbu tushunchadan keng va tor ma'noda foydalanish mumkinligini ko'rsatmoqda. Keng ma'noda migratsiya davomiyligi, uzluksizligi va maqsadli ekanligidan qat'iy nazar, bir yoki bir necha ma'muriy – hududiy birliklar o'rtasida amalga oshiriluvchi hududiy ko'chishlarni anglatadi. Tor ma'noda esa, doimiy yashash joyining o'zgarishi bilan yakun topgan hududiy ko'chish jarayoni tushuniladi.

Shuni ta'kidlash joizki, "migratsiya"ga nisbatan zamonaviy qarashlar tahlili asosida, uning mohiyatini ochib berishga qaratilgan yondashuvlarni asosan to'rt turga ajratish mumkin: Birinchidan, migratsiyaga nisbatan keng aholi ommasining davlatlar hududiy



birliği doirasidagi ko'chishi, shuningdek, muayyan ijtimoiy guruhlarining har qanday tashkiliy tuzilma doirasida harakatlanishi sifatida qaraladi. Ikkinchidan, migratsiyaga katta miqdordagi aholi oqimining yakuniy maqsadlaridan qat'iy nazar, hududiy siljishlari sifatida ta'rif beriladi. Uchinchidan, aholi ommasi yashash manzilining o'zgarishi bilan xarakterlanuvchi jarayonni migratsiya sifatida qabul qilish mumkin. To'rtinchidan, migratsiya deganda, kishilarning makon bo'ylab harakatlanishi tushuniladi va bunda uning oqibati sifatida hudud bo'ylab qayta taqsimot yuzaga keladi. Yuqoridagi fikrlar asosida "migratsiya" jarayonining quyidagi belgilarini aniqlash mumkin: hududiy chegaralardan o'tish, yashash manzilining o'zgarishi hamda davlatning alohida shaxslari tomonidan mazkur o'zgarishlarning davomli kechayotgani kabilar shular jumlasidandir.

Migratsiyani tasniflashda, ularni 5 turga ajratish maqsadga muvofiq: mehnat migratsiyasi (labour), oila migratsiyasi (family), qaytish migratsiyasi (return), etnik migratsiya (ethnic) va boshpanaga ega bo'lish maqsadidagi migratsiya (asylum). Migratsiyaga oid nazariyalarni to'rt guruhga ajratish mumkin: klassik (mumtoz) maktab, neoklassik maktab, yangi iqtisodiy migratsiya nazariyasi hamda migratsiyaning neoklassiklardan iborat makroiqtisodiy nazariyasi. Bir qator tadqiqotchilarning fikricha, keng qamrovli va yagona mohiyatga ega bo'lgan universal migratsiya nazariyasini shakllantirish imkoniyati mavjud emas. Zero, migratsiya turli ijtimoiy hodisalarni o'zida qamrab olgan murakkab jarayondir.

Ma'lumki, migratsiya lotincha so'z bo'lib migration — ko'chish demakdir. Bunda insonlarning bir mintaqadan (mamlakat, biror bir ma'muriy birlik va shahar) boshqa bir mintaqaga (mamlakat, biror bir ma'muriy birlik va shahar)ga ko'chishi tushuniladi. Ko'chish bilan bog'liq har qanday harakatni migratsiya sifatida baholash mumkin. Ko'chishlar, ya'ni migratsiya jarayonlari ichki va tashqi turlarga bo'linadi. Ichki migratsiya mamlakatning ichida sodir bo'ladigan jarayon bo'lib aholi mamlakat bo'ylab asosan qishloqlardan shaharlarga yoki kam rivojlangan mintaqalardan, rivojlangan mintaqalarga tomon harakatlanadi. Tashqi migratsiya esa, mintaqalar va mamlakatlar o'rtasida amalga oshiriladi. Ko'chish jarayonida ishtirok etayotganlar umumiy nom bilan migrant (muhojir) deb nomlanadi. Ma'lum bir hududdan chiqib ketayotganlar emigrantlar va ko'zlangan hududga kirib borayotganlar immigrantlar deb nomlanadi. Migrantlar yakka tartibda, jamoaviy yoki oilaviy tarzda, mavsumiy muddatga, doimiy yashab qolish maqsadida yoki qaytib kelish maqsadida migratsiya jarayonini amalga oshiradilar. Migratsiya dunyodagi chegaraviy bo'linishlarni va mamlakat ichidagi hududiy bo'linishlarni inkor qiluvchi, ularni birlashtiruvchi, odamlar turmush darajasini yaxshilovchi ularning ijtimoiy maqomini o'zgartiruvchi jarayon hamdir.

XIX asr xalqaro migratsiya jarayonlarida Yevropa davlatlari yaqqol ustunlikka ega bo'lgan, zamonaviy xalqaro migratsiya jarayonlarining boshlovchilari ham yevropaliklar deyish mumkin. 1821 – yildan 1924 – yilgacha bo'lgan davrda 55 million yevropaliklar migratsiyani amalga oshirgan, ulardan 35 millioni Qo'shma Shtatlarga ko'chib kelishgan. 1990 – yilda dunyo miqyosida 100 million qonuniy harakatlanayotgan migrantlar, 19



million qochoqlar va 10 milliondan oshiqroq noqonuniy migrantlar borligi aniqlangan . Dunyo miqyosida mustamlakachilik tuzumlarining to‘laligicha yemirilishi, yangi davlatlarning tashkil topishi va yangi siyosiy tartibotlarning o‘rnatilishi o‘tgan asrning 90 – yillarida migratsiya jarayonlari tarixidagi yangi davrni boshlab berdi .

Migratsiya jarayonining rivojiga ta’sir qilayotgan omillarni quyidagicha ko‘rsatib o‘tish mumkin:

1. Iqtisodiy omillar:

- globalizatsiya jarayonlarining kengayib bora boshlaganligi;
- transport kommunikatsiya tizimlarining takomillashuvi va arzonlashuvi; iqtisodiy integratsiyalashuv va arzon ishchi kuchiga talabning oshib borishi;
- iqtisodiy globalizatsiya sharoitida kam rivojlangan, mehnat bozorida ish o‘rinlari tanqis bo‘lgan mamlakatlarda mehnatga qobiliyatli aholi sonining oshib borayotganligi va aksincha rivojlangan mamlakatlar mehnat bozorida doimiy talabning mavjudligi;
- turli mamlakatlarda bir xil turdagi mehnat uchun turlicha haq to‘lanishi, turli mamlakatlarda turli mutaxassislarga nisbatan talab darajasining turlicha ekanligi;
- Sharqdagi demografik “portlash” va g‘arbdagi demografik inqiroz;

2. Ijtimoiy – siyosiy omillar:

- rivojlanayotgan mamlakatlardagi umumiy savodxonlik darajasining o‘shib borishi;
- ijtimoiy beqarorlik, siyosiy va harbiy konfliktlarning tez – tez takrorlanib turishi kabilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori malakali mutaxassislar sonining oshib borishi va aksincha rivojlangan mamlakatlarda yuqori malakali mutaxassislarga talabning oshib borishi ham tashqi migratsiya rivojiga ta’sir ko‘rsatadi. XX asrning 30 – yillarida xuddi shunday holat AQSHda kuzatilgan. Germaniya millatchi hukumatidan norozi bo‘lgan minglab olim va tadqiqotchi qochqinlarni AQSH qabul qilgan va ularga fuqarolik bergan.

Turli davrlarda xalqaro migratsiya yo‘nalishlari ham turlicha bo‘lib kelgan. Yuqorida ta’kidlanganidek ikkinchi jahon urushidan keyingi yillargacha bo‘lgan davrda, xalqaro migratsiya markazi sifatida asosan Shimoliy Amerika va Avstraliya ahamiyatli bo‘lgan bo‘lsa urushdan keyingi davrda migratsiyaning asosiy yo‘nalishi AQSH, Kanada va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari bo‘lgan. O‘tgan asrning 70–yillarining oxirlaridan xalqaro migratsiya markazlari qatoriga Fors Ko‘rfazi mamlakatlari ham qo‘shildi. Bugungi kunga kelib xalqaro migratsiyaning yirik markazlari sifatida G‘arbiy Yevropa, AQSH, Fors Ko‘rfazidagi neftga boy arab davlatlari va Rossiya Federatsiyasi e’tirof etiladi .

O‘z o‘rnida turli davrlarda migratsiya jarayonlaridagi yetkazib beruvchi davlatlar ya’ni, emigrantlar chiqaruvchi davlatlar ham turlicha bo‘lgan. Yuqorida ta’kidlanganidek ikkinchi jahon urushigacha va urush davrida ham emmigrantlar miqdori bo‘yicha Yevropa davlatlari (ham sharqiy ham g‘arbiy) mutloq ustun bo‘lgan. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda migratsiya jarayonlarida mustaqillikni qo‘lga kiritgan sobiq mustamlaka davlatlar yetakchilik qila boshladi. Bu davlatlar qatoriga Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Shimoliy Afrika davlatlarini kiritish mumkin. XX asrning 90 –



yillaridan keyin migratsiya jarayonlarida Sharqiy Yevropa davlatlari va MDH davlatlari ham ishtirok eta boshladi .

Xulosa va tavsiyalar. Migratsiya jarayonlari oqibatida odatda ma'lum bir diaspora (ma'lum milliy – etnik guruh) shakllanadi bu esa o'z navbatida mayda millatlar masalasi, shuningdek etnokonfessional va diniy konfessional munosabatlar va muammolarni keltirib chiqaradi. Bir qarashda ma'lum bir iqtisodiy yoki ijtimoiy siyosiy muammolar yoki yana qandaydir siyosiy inqiloblar va urushlar natijasida boshlanadigan migratsiya jarayonlari tarixiy rivojlanish davrida ko'plab muammolarni vujudga keltiradi. Zamonaviy tarixiy tadqiqotlarda ma'lum mamlakatdagi siyosiy nizolar, siyosiy inqiloblar, harbiy to'qnashuvlar va iqtisodiy inqirozlar oqibatida mamlakatni minglab fuqarolar tark etadi. Bu inqilob va nizolarning mantiqiy davomi sifatida migratsiya jarayonlari boshlanadi. Shu sababdan bu tarzda inqiloblar va nizolarni tadqiq etishda jarayonning oqibatlari sifatida migratsiya jarayonlarini ham alohida yoritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

XIX asr yakunga kelib ko'plab Sharq mamlakatlari G'arb mamlakatlarining mustamlakasiga yoki ularning ta'sir doirasiga tushib qolgan edi. XX asrning ikkinchi yarmida bu mustamlaka mamlakatlar mustaqillikni qo'lga kiritdilar, biroq ularning xo'jalik tizimi uzoq yillar davomida mustaqillikka erisha olmadi deb aytish mumkin. Shu boisdan ham mustamlaka qilingan ko'plab sharq mamlakatlari hali hamon u yoki bu jihatdan sobiq mustamlakachilari ta'sirida qolmoqda.

Agar migratsiya jarayonlariga, mustamlakachilik siyosati tarixi va uning oqibatlari tahlili doirasida yondashilsa, bizning fikrimizcha mustamlaka siyosatining tugallanmagan oqibatlaridan biri sifatida migratsiya jarayonlarini o'rganish mumkin bo'ladi. Zamonaviy geoiqtisodiy va geosiyosiy jarayonlarda xalqaro mehnat bozoriga ishchi kuchini yetkazib beruvchi donor mintaqalar mavjud bo'lib, bular: Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika, Janubiy va Janubiy – sharqiy Osiyo, Shimoliy – sharqiy Osiyo, Janubiy Afrika, sobiq ittifoq davlatlari jumladan Janubiy Kavkaz va O'rta Osiyo mintaqalaridir . Bu mintaqalar aholisining katta qismi asosan tarixiy aloqasi bor, ya'ni mustamlaka asoratida bo'lgan mamlakatlarga migratsiyani amalga oshiradi. Jumladan Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq aholisi asosan tarixda ularni mustamlakaga aylantirgan G'arbiy Yevropa mamlakatlariga, Janubiy va Janubiy–sharqiy Osiyo mamlakatlari Buyuk Britaniyaga, Janubiy Kavkaz va O'rta Osiyo mintaqalari aholisi esa Rossiya Federatsiyasiga migratsiyani amalga oshiradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Международная организация по миграции. World Migration Report 2022 – Женева: IOM, 2022. – Режим доступа: <https://worldmigrationreport.iom.int/wmr-2022> – interactive, свободный.
2. Ушакова Д. Толковый словарь русского языка.– Москва, 2000. – Т. 1. – С. 247.



3. Рыбаковский Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. – М.: Наука, 1987. – С. 18 – 26.
4. Концепция государственной миграционной политики РФ на период до 2025 года (утв. Президентом РФ 13.06.2012 г.) // Сайт Президента РФ. – Режим доступа: <http://www.kremlin.ru/events/president/news/15635>.
5. Jennissen R. Macro-economic Determinants of International Migration in Europe. Monography. – Amsterdam, 2004: Dutch University Press. – P. 8.
6. Расулова Д.В. Ишчи кучи миграцияси ривожланишинг назарий асослари. – Монография. – Т., 2010. – Б. 38.
7. Hein de Haas. A theory of migration: the aspirations–capabilities framework // Comparative migration studies. –2021. – PP. 1–35.
8. С.Хангтингтон. Столкновение цивилизаций. М.: АСТ, 2006. – С. 309.
9. de Haas H., Vargas–Silva C., Vezzoli S. Global Migration Futures: A Conceptual and Methodological Framework for Research and Analysis. – Oxford: International Migration Institute, University of Oxford, 2010. – P. 8.
10. Taylor J.E., Arango J., Hugo G., Kouaouci A., Massey D.S., Pellegrino A. International migration and community development // Population. – Paris, 1996. –P.142.
11. IOM. World Migration: Managing Migration – Challenges and Responses for People on the Move. – Geneva: International Organisation for Migration, 2003. – P.21.
12. de Haas H. The Internal Dynamics of Migration Processes // Paper presented at IMSCOE Conference on Theories of Migration and Social Change, St Anne’s College, University of Oxford, 1 – 3 July 2011. – P. 5.
13. Цапенко И. Экономический цикл и международная миграция населения // Мировая экономика и международные отношения. – 2011. – № 10. – С. 73.
14. Миграционные процессы в развивающихся странах Азии и Африки: Сб. статей / Отв. ред. А.А. Рогожин. – М.: ИМЭМО РАН, 2010. – С. 5.

